

«OFB Mobile Business» (OFB MoB) dasturi orqali hisobvaraqlarni kuzatib borishni amalga oshirishga QO'SHILISH SHARTNOMASI

“Orient Finans” XATB (keyingi o‘rinlarda “Bank” deb yuritiladi) va Korxonada (keyingi o‘rinlarda “Mijoz” deb yuritiladi), «OFB Mobile Business» (OFB MoB) (keyingi o‘rinlarda “Shartnoma” deb yuritiladi) dasturi orqali hisobvaraqlarni kuzatib borishni amalga oshirish uchun SHartnomaga qo‘shilishga ariza kiritish yo‘li bilan quydagilarga kelishib oldilar.

1. XIZMAT KO‘RSATISH MAZMUNI

1.1. Ushbu shartnomaga ko‘ra, Bank «OFB Mobile Business» (keyingi o‘rinlarda «OFB MoB» deb yuritiladi) dasturini o‘rnatish, ishni tashkil etish va xizmat ko‘rsatishni o‘z zimmasiga oladi, Mijoz esa talablarga rioya qilgan holda «OFB MoB» dasturidan foydalanish huquqini oladi.

1.2. Mijoz «OFB MoB» tizimi bo‘yicha XATB “Orient Finans”da ochilgan hisobvarag‘ini amaldagi qonun hujjatlarida va ushbu shartnomada belgilangan tartibda va shartlarda kuzatib borish, shuningdek hisobvaraq bo‘yicha aktiv operatsiyalarni amalga oshirishi (agar bunga OFB MoB dasturini o‘rnatish dalolatnomasi asosida ruxsat etilgan bo‘lsa) mumkin.

1.3. Bank mazkur shartnomaning 3.4.1. bandida keltirilgan talablarga javob beradigan Mijozning mobil qurilmasiga «OFB MoB» dasturini dalolatnoma (mazkur shartnomaning 1-ilovasi) asosida o‘rnatadi va ushbu dastur ishini tashkil etadi.

1.4. Tizimda ishlashning yagona vaqt o‘lchov shkalasi sifatida Toshkent vaqt mintaqasi qo‘llaniladi. Nazorat vaqti bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining apparat vositalari tizim soati hisoblanadi.

2. TO‘LOV SHARTLARI

2.1. Mijoz «OFB MoB» tizimidan foydalanganlik uchun Bankning Tariflariga muvofiq komission haq to‘laydi.

2.2. To‘lov Mijoz tomonidan, Mijoz hisobining faoliyatidan qat‘iy nazar har oyning 1-kunida amalga oshiriladi.

2.3. Agar mijoz komission to‘lovlarni to‘lamasa, Fuqarolik kodeksining 776 va 783-moddalariga muvofiq Bank mijozning topshirig‘i va roziligisiz mijozning ushbu shartnoma bo‘yicha yuzaga keladigan qarzdorligini barcha hisobvaraqlardagi mavjud pul mablag‘lari hisobidan echib olish huquqiga ega.

3. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Bank quydagi huquqlarga ega:

3.1.1. Mijoz «OFB MoB» tizimida ishlash uchun, Mijozning mobil qurilmasiga dasturni o‘rnatish va sertifikatlash uchun zarur ishlarni bajarish.

3.1.2. Mijoz tomonidan keyinchalik dasturdan foydalanishi uchun, Mijozning mobil qurilmasiga o‘rnatilgan dasturni faollashtirish bo‘yicha ishlarni bajarish.

3.1.3. «OFB MoB» tizimidan foydalanganlik uchun Mijozning har chorakda bir oydan ortiq (obuna to‘lov stavkalari bo‘yicha), keyingi chorakning birinchi oyida qarzdorligi mavjud bo‘lsa, unga taqdim etilgan xizmalar uchun qarzdorlik to‘liq to‘lagunga qadar «OFB MoB» tizimidan o‘chirish.

3.1.4. **ARIZADA** ko‘rsatilgan maxfiy so‘zga ruxsatsiz kirishdan himoya qilishni ta‘minlash.

3.2. Bank quydagi majburiyatlarga ega:

3.2.1. Mijozga «OFB MoB» tizimida foydalanish tartibi va shartlari haqida tushuntirishlar berish.

3.2.2. Amaldagi qonun hujjatlarda belgilangan tartibda Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning uchunchi shaxslarga oshkor etmaslik.

3.2.3. Mijozdan uning «OFB MoB» dasturi o'rnatilgan mobil qurilmasi yo'qolganligi yoki o'g'irganligi to'g'risida yozma xabar olingandan so'ng «OFB MoB» tizimidan o'chirish.

3.2.4. "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida nazarda tutilgan hollarda Mijozni «OFB MoB» tizimidan o'chiriladi.

3.3. Mijoz quydagi huquqlarga ega:

3.3.1. Mijoz o'z bank hisobvarag'ini kuzatib borish;

3.3.2. Amaldagi qonunchilik va mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda hisobvara q bo'yicha aktiv operatsiyalarni amalga oshirish;

3.3.3. Hisobvara q bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar haqida ma'lumot olish;

3.3.4. «OFB MoB» tizimida ishlash qoidalari va ushbu qoidalarga kiritilgan o'zgarishlar haqida Bankdan ma'lumot olish;

3.3.5. «OFB MoB» tizimidan o'chirilish uchun arizani ushbu tizimdan o'chirish mo'ljallangan sanadan 3 (uch) ish kuni oldin berish.

3.4. Mijoz quydagi majburiyatlarga ega:

3.4.1. «OFB MoB» dasturiga ulanish uchun quyidagilarga ega bo'lish talab etiladi:

– Soz holatdagi va iOS kamida 6.0. versiyadagi, yoki Android kamida 4.0. versiyadagi operatsion tizimida ishlaydigan mobil qurilma;

– Internetga kirish imkoniyati;

– Internet xizmatlaridan foydalanish uchun mobil qurilma hisobida etarli mablag' bo'lishi;

– Zararli xakerlik dasturlarsiz qurilmaga, operatsion tizimida ma'muriy huquqlarga ega bo'lgan qurilmaga;

3.4.2. «OFB MoB» dasturidan foydalanish huquqini uchinchi shaxslarga bermaslik;

3.4.3. Agarda «OFB MoB» dasturi o'rnatilgan mobil qurilma yo'qolgan yoki o'g'irlangan taqdirda Mijoz shu kunning o'zida yozma ravishda bankka murojaat qiladi (yo'qotish yoki o'g'irlangan kun. Agar yo'qotish yoki o'g'irlik kuni hafta oxiri yoki ishlamaydigan kun bo'lsa, unda birinchi bank ish kuni).

3.4.4. Bank tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun Bank Tariflariga muvofiq o'z vaqtida haq to'lash.

3.4.5. Bankdan olingan avtorizatsiya ma'lumotlari (login/porol)dan to'g'ri foydalanish. Uchinchi shaxslarga foydalanish uchun avtorizatsiya ma'lumotlarini va maxfiy kalitni bermaslik;

4. TARAFLARNING JAVOBGARLIKLARI

4.1. Bank quydagi javobgarliklarni o'z zimmasiga oladi:

4.1.1. Bank mijoz hisobidagi operatsiyalarni to'g'ri aks ettirish va elektron to'lov tizimi orqali axborotni o'z vaqtida uzatish uchun javob beradi. Mijozning bank tomonidan qabul qilingan va himoyasi tekshirilgan (deshifratsiya) buyurtmlari ijro uchun majburiy hisoblanadi, ushbu shartnomaning 3.2.3-bandida keltirilgan holatlar, shuningdek belgilangan muddatdan kechikib yuborilgan buyurtmalar bundan mustasno.

4.1.2. Bank nazoratidan tashqari hollardagi, shuningdek Mijoz belgilangan texnik shartlarga rioya qilmagan hollarda axborat jo'natishda va qabul qilishda uzilishlar uchun javobgar emas.

4.1.3. Mijoz tomonidan taqdim etilgan mobil qurilmaga (mobil qurilma o'g'irlangan yoki mijozning mulki bo'lmagan) «OFB MoB» dasturini o'rnatganlik uchun Bank Mijoz va/yoki uchinchi shaxslar oldida javobgar bo'lmaydi

4.2. Mijoz quydagi javobgarliklarni o'z zimmasiga oladi:

4.2.1. Mijoz bank tomonidan o'rnatilgan «OFB MoB» dasturining to'g'ri ishlash holati va undan uchinchi shaxslar foydalanishi uchun javobgardir. Agar mijoz ushbu talablarga rioya qilmasa, mijozga tegishli bo'lgan bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor bo'lishi uchun shaxsan javobgar bo'ladi.

4.2.2. Mijoz maxfiy kalitning xafsizligi va ruxsatsiz uchinchi shaxslar tomonidan unga kirishdan himoyalaniish uchun javobgardir. Maxfiy kalit yuridik kuchga ega. Mijoz uchinchi shaxslar tomonidan maxfiy kalitdan foydalanish natijasida ko'rilgan har qanday zarar uchun Mijozning o'zi javobgardir.

4.2.3. «OFB MoB» dasturi yordamida amalga oshirilgan barcha aktiv operatsiyalar Mijoz (Mijoz tomonidan tasdiqlagan) tomonidan amalga oshirilgan deb tan olinadi va e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi. «OFB MoB» dasturi yordamida amalga oshirilgan barcha aktiv operatsiyalar uchun mijoz javobgar hisoblanadi.

5. BOSHQA SHARTLAR

5.1. «OFB MoB» dasturi bankning mulki hisoblanadi. «OFB MoB» dasturi orqali qabul qilingan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonunga muvofiq yuridik kuchga ega.

Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlar o'rtasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Ushbu shartnomaning ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

**«OFB MoB» dasturini o‘rnatish
DALOLATNOMASI**

_____ sh. «_____» _____ 20__ y.

«**Orient Finans**» XATB (keyingi o‘rinlarda «Bank») nomidan nizom va _____ 20__ yil _____ dagi №__ ishonchnomaga asosan faoliyat yurituvchi _____, F.I.SH., bir tomondan va _____ (korxonasi nomi) (keyingi o‘rinlarda «**Mijoz**») nomidan Ustav /ishonchnomaga asosan ish yurituvchi _____ F.I.SH, ikkinchi tomondan, ushbu dalolatnomani quyidagi shartlar asosida tuzdilar.

Mijozning IMEI raqami _____ bo‘lgan _____ mobil qurilmasiga, faollashtirish jarayonida ro‘yxatga olingan login bilan «OFB MoB» dasturi o‘rnatildi va uning normal ishlashi ta‘minlandi.

«OFB MoB» dasturi orqali hisobvaraqlar bo‘yicha aktiv operatsiyalarni amalga oshirishga imkoniyat berildi. *(faqatgina mijoz tomonidan hisobvaraqlar bo‘yicha aktiv operatsiyalarga ruxsat berish istagini bildirilgan taqdirda mazkur band kiritiladi)*

Mijoz Bankka taqdim etilgan mobil qurilmada zararli dasturlar mavjud emasligini tasdiqlaydi va uchinchi shaxslar tomonidan dasturdan foydalanganlik uchun javobgarlik to‘g‘risida ogohlantirildi.

Mijoz «OFB MoB» dasturining xavfsiz holatiga shaxsan javob beradi va bu dastur uchinchi shaxslar tomonidan qo‘llanilmasligini kafolatlaydi.

«Bank»

«Mijoz»

Manzil:

Tel.:

Faks:

Bank rekvizitlari:

H/r:

MFO:

STIR:

Boshliq/Boshqaruvchi

Manzil:

Tel.:

Faks:

Bank rekvizitlari:

H/r:

MFO:

STIR:

Rahbar